

Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” dostonida tavozelik talqini

Juraqulov Mirjalol Sunnatillo o‘g‘li

BuxDu filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Hibbat ul-haqoyiq” dostoni tarkibidagi “Kamatarlikka buyurish, kibr va hirsdan qaytarish” nomli bobidagi ayrim to‘rtliklar tahlil qilingan bo‘lib, tahlillar jarayoni Qur’oni karim oyatlari va hadisi shariflar bilan quvvatlangan.

Kalit so‘zlar: Qur’on, hadis, kamtarlik, manmanlik, fazilat, axloq, gunoh, mo‘min, libos.

KIRISH

Turkiy adabiyotimiz tarixida ijod qilgan adib Ahmad Yugnakiy o‘zining “Hibbat ul-haqoyiq” dostonida bir mucha Qur’oniy va hadisiy ilmlarni nazmiy uslubda xalqqa yetkazgan adiblarimizdandir. “Shoir, kishi uchun kerakli sanalgan barcha ezgu xislatlarni – bilim o‘rganishning foydasi va bilmsizlikning ziyoni, tilni tiyish odobi, dunyo va uning o‘zgaruvchanligi va vafosizligi, saxiylikning foydasi va xasislikning zarari, kamtarlikning kamoli”[1,3]... kabi bir qator mavzularni qalamga olgan. Hamda ushbu mavzularni nazmiy uslubda yoritish asnosida ularni Qur’on va Hadisi shariflar bilan quvvatlagan.

ASOSIY QISM

Xususan, 14 boblik asarning 10-bobidan joy olgan “Kamatarlikka buyurish, kibr va hirsdan qaytarish”[1,19],- deya nomlangan bobning ham ayrim satrlarida islomiy qarashlar namoyon bo‘ladi. “Usoma ibn Sherik(r.a.) aytadilar: Men Rasululloh alayhissalomning huzurlarida bo‘lgan paytlarimda uyoq-buyoqdan a’robiylar keldilar. ... Ular: “Yo Raululloh! Insonlarga berilgan fazilatlarning eng yasxisi nima?”,- deb so‘rashdi.Rasululloh alayhissalom: “Insonlarga berilgan fazilatlarning eng yaxshisi axloqdir”, dedilar[2, 49]. . Darhaqiqat, hayotimiz davomidagi bizning

aslimizni xalqqa tanitadigan jihatimiz bu odob-axloqimizdir. Muborak dinimizda nomi ulug‘langan xulqlardan biri bu kamtarlik, ya’ni tavozelik hisoblanadi. Bu xulqning teskarisi esa, ujub ya’ni kibrdir. Kamtar kishilar, maqtanishni, manmanlik qilishni istamaydi, hamda haqiqatni kimdan va qayerda eshitishidan qat’iy nazar tan oladigan kishilardir. Kibrilik ya’ni takabburlik esa,: “**Haqiqatni, to‘g‘ri so‘zni tan olmaslik va boshqa kishilarni o‘zidan past hisoblashlikdir**”[2,89]. Adib, kamtarlikka doir bo‘gan bobda quyidagi kabi o‘qiguvchini kibrdan voz kechib, tavozeni mahkam tutmoqlikka chaqiradi:

Yana bir kerakli so ‘zim bor senga,

Uni men senga aytay, quloq tut menga.

U(so ‘z) shudirkim, kibrni yerga solib,

Tavozuni mahkam tut, unga qattiq yopish[1,20]

Adib, kibrni oyoq osti qilib, tavozeni mahkam tutmoqlik kerak ekanligi haqida ogohlantirar ekan, bu uyg‘otish bekorga emas. Zero, Alloh taolo Isro surasida bandalarini isrof, baxillik, bolalarni kambag‘allikdan qo‘rqib o‘ldirish, zino, odam o‘ldirish kabi bir qator gunohi kabiralardan qaytarib, oxirida yer yuzida kibr ila yurmoqlikni ham sanaydi: “**Yer yuzida kibr-havo bilan yurma! Chunki aslo yerni yerni teshib kira olmaysan va bo‘y-bastda tog‘larga yeta olmaysan. Bularning barcha yomonlari Parvardigoringiz nazdida makruh bo‘lgan gunoh(lar)dir.**”[3,Isro surasi, 37-38-oyatlar, 285-b]. Bob tarkibidagi to‘rtlikdan birida adib, kibrni hamma yoqtirmasligini, ochiqko‘ngillik esa yaxshi xulq ekanligini, o‘zini ulug‘ bilib manmanlik qilgan kishilarni xalq ham, Xoliq ham sevmasligini aytib o‘qiguvchini yana bir bor ogohlilikka chaqiradi. Qur’oni karimda keltirilishicha Luqmoni hakim hazratlari o‘g‘liga shunday nasihat qiladi: “**Odamlarga(kibrланib) yuzingni burushtirmagin va yerda kerilib yurmagin!** **Chunki, Alloh barcha kibrli, maqtanchoq kimsalarni suymas**”[3, Luqmon surasi, 18-oyat,412-b], deya o‘g‘lini kamtarroq bo‘lishga va kibrga berilib, Allohnинг muhabbatidan qolmaslikka chaqirmaqda. Ahmad Yugnakiy, quyidagi to‘rtlikda

kimki kibr libosini kiygan bo‘lsa darhol uni yechmoqlik kerak ekanligini, insonlarga kibrda bo‘lgan kishi darhol bu yo‘lni tark qilmoqligini, haqiqiy mo‘min tavozeli bo‘lmoqligi kerakligini uqtiradi:

Kibr libosini kiygan bo‘lsang darhol uni yech,

Xalqqa qarata ko‘ksingni kergan bo‘lsang, yaxshi gapirib,

darhol oldini ol.

Mo‘minlikning belgisi tavozudir.

Agar mo‘min bo‘lsang, mutavoziy bo‘l.[1,20]

Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi. Nega aynan “*kibr libosi*”? Bizningcha adib shu o‘rinda quyidagi Qudsiy hadisga ishorat qilmoqda: “**Azamat Mening izoram, kibriyo esa, ridoimdir. Bas, kim bu ikki narsada Men bilan talashsa, uning belini sindiraman**”[4,73-b], deya marhamat qiladi. Ya’ni bu hadisda azamat ichki libos, kibriyolik esa tashqi libos sifatida keltirilmoqda va adibning “*kibr libosi*” atamasini qo‘llashiga ham asos bordir. Shu o‘rinda, mo‘min kishi kamtar bo‘lmog‘i, agar xalqqa kibrli bo‘lsa, darhol uzr so‘rab, bu yo‘l(kibr)dan qaytmoqlik kerakligini o‘quvchiga eslatmoqda. Alloh taolo Qur’oni karimning Furqon surasi, 63-oyatida shunday marhamat qiladi: “**Rahmonning (suyukli) bandalari yerda tavoze’ bilan yuradigan, johil kimsalar ularga(be’mani) xitoblar qilgan vaqtida ham “Omon bo‘linglar”, deb javob qiladigan kishilardir**”[3,365-b], deya chin mo‘minlarning sifatlaridan biri bo‘lgan kamtarlik haqida so‘z yuritiladi. Payg‘ambarimiz alayhissalom shunday degan: “**Kimki kamtarin bo‘lsa, Tangri uni yuksaltiradi, kimki takabbur bo‘lsa, uni xor qiladi**”[1,21], deya marhamat qilganlar. Adib, quyida ushbu hadisni nazmda ifodalagan:

Tavozu qiliqlini Tangri yuksaltiradi,

Takabburlik qiluvchi kishini quyi tushiradi.

Zinhor o‘zingni ulug‘ tutma, Ulug‘ bir tangridir,

U: “Ulug‘lik meningdir, siz ulug‘sinmang”, - dedi[1,20].

Shu o‘rinda, otamiz Odam alayhissalom va onamiz Havolar hamda shayton alayhilla’naning jannatdan quvilishlaridagi tafovutga qarasak. Otamiz va uning jufti shaytonning makriga aldanib gunoh qildilar va ortidan darhol tavba qilib, Allohning rahmatiga noil bo‘ldilar. Ammo shayton esa: “ **U yer(jannat)da senga takabburlik qilishing joiz emas. Bas, chiq! Albatta, sen(endi) haqirlardandirsan**”[3,A’rof surasi, 12-13-oyatlar,365-b] amiriga muvofiq kibri tufayli jannatdan quvildi va Allohning nazaridan tushdi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz joiz-ki, adib Ahmad Yugnakiy shoirona mahorati va diniy ilmlariga asoslangan holda, takabburlik va kamtarlik mo‘min kishining bu dunyo va ohiratini barbod qilishi yoki odob qilish mumkinligi ekanligini bizga sodda va ravon uslibda yetkazib bergenlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimjon Sodiqov. Hibbat-ul-haqoqiyq[Matn]: asar\ Adib Ahmad Yugnakiy. T.:Akademnashr,2019
2. Imim Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. 2007
3. Abu Homid al-G’azzoliy. Iyhou ulumid-din(Din ilmlarini jonlantirish) – Ilm kitobi. T.: “Movarounnahr” nashriyoti,2007
4. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. – T.: “Munir” nashriyoti, 2021